

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon Davlat universiteti Pedagogika fakulteti
“Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi” yo`nalishi
5140700*

*IV bosqich talabasi
Rahmonov Xurshidbekning*

**“O'ZBEK MILLIY HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING
O'ZIGA HOS TOMONLARI”**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

X. Ismonov

Andijon-2012 yil.

REJA

Kirish .

I-BOB. O‘zbek Milliy haykaltaroshlik San’atining Rivojlanishi

I-1. O‘rta Osiyo haykaltaroshligi

I-2. Mustaqillik yillari O‘zbekiston haykaltaroshligi va yzbek haykaltaroshlari

II-BOB. Haykataroshlikda ishlatiladigan dastgohlar va materiallar. Odam boshi rel’efini ishlanishi. Z.M.Bobur rel’efi.

II-1. Haykataroshlikda ishlatiladigan dastgohlar va materiallar.

II-2. Odam boshi relefini ishlanishi. Zahiriddin Muhammad Bobur boshi rel’efi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimiz o'zining juda ko'p ming yillik tarixiga, ma'naviy va moddiy boyliklariga ega. Asrlar davomida millatimiz juda ko'p qiyinchiliklarni ko'rib, shu kunga qadar yetib keldi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy sohalarda, ayniqsa ta'limni isloh qilish borasida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Oliy Majlisning 1997 yil 29-avgust IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi XXI-asrda O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi strategik yo'nalishini belgilab berdi. Bu esa umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb - hunar kollejlari uchun ma'naviy jihatdan barkamol, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mohirona qo'llay oladigan, ijodkor o'qituvchi-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zero Prezident I.A. Karimov aytganidek, «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq».¹

Ma'lumki, san'at juda Qadim zamonlarda mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi. Go'zallik hissi orta boshlaydi., voqealidagi qulaylik, foydalilik, go'zallik tushunchalarini anglaydi. Uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz yaratgan tosh qurollar, ularning nafaqat moddiy ehtiyojlarini qondirgan, balki, kundalik hayoti mazmunini boyitishga xizmat ham qilgan. Tosh qurollarsiz biror bir eng sodda naqsh yoki qoyalarga tushirilgan tasvirlarning vujudga kelishi mumkin emas edi. San'at mehnat bilan uyg'un tarzda rivojlangan,

¹I. A. Karimov *O'zbekiston XXI asrga intilmoqda*.T. «O'zbekiston», 1999 yil, 18 bet. bevosita mehnat jarayonlari bilan chirmashib ketgan.jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy taraqqiyotidagi katta o'zgarishlar san'atning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab bergan. San'at tarixiy jarayonlarda ma'lum vaqt g'oyaviy qurol sifatida hukmron tabaqalarning targ'ib etuvchi o'ziga xos kuchiga aylangan, lekin shunga qaramay u hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi. (olijanoblik, insonparvarlik), ularda tenglik, ozodlik, birdamlik (birodarlik), kelajakga ishonib, intilib yashashga hatto bu yo'lda uchraydigan to'siqlarga qarshi kurashga da'vat etuvchi safarbar, da'vatkor kuch

vazifasini ham bajardi.

Madaniyat so'zi ko'plab ishlatiladigan so'zlar tartibiga kiradi. U haqiqatan barcha tillarda uchraydi. Ammo yozilishi jihatidan ko'p joylarda bir hil bo'lsa-da, (kul'tura!!) so'zning ishlatilishiga qarab u turli tushunchalarni beradi. Madaniyat, yani «kul'tura» so'zining ma'nosi ustida olimlar o'rtasida juda ko'p tortishuvlar bo'lgan. Hozirgi kungacha unga berilgan yagona ta'rif yo'q. (200 dan ortiq turli ta'riflar berilgan).

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va julm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlar qadsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadsizlantirildi, ko'plab masjidu-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon civilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'la boshladi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allamalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YUNESKO bilan hamkorlik mamlakatimizda va xalqaro miqyosida keng nishonlandi:

- 1991 yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1992 yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
- 1993 yil – Zahriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1994 yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996 yil – Amur Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997 yil – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998 yil – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999 yil – «Alpomish» dostoni yaratilganining 1000 yilligi;
- 2000 yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000 yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001 yil – «Avesto» yaratilganining 2700 yilligi.
- 2004 yil – 25 mart – Vazirlar Mahkamasining “Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligini nishonlash to'g'risida”gi 143-son qarori qabul qilindi.
- 2004 yil – 16 iyul – Vazirlar Mahkamasining “Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tiklash to'g'risida”gi 337-son qarori qabul qilindi
- 2006 yil-Qarshi shahrining 2700 yillii va Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.
- 2007 yil-Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlanadi.

Ana shunday buyuk allomalarimizni bizning tasavvurimizda yanada yaqqolroq qolishi haykaltaroshlik san'atini qay darajada rivojlanishiga ham o'z o'rnida bog'liq bo'lib qoladi.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash, bir necha o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq o'quv predmetlari asosida amalga oshiriladi. Shulardan biri **haykaltaroshlik** va **plastik anatomiyadir**. Bulajak mutaxassis o'qituvchi qalamtasvir sohasidagi perspektiva qonun-qoidalari, yorug'-soya nazariyasi, shakllarning konstruktiv tuzilishi va nisbatlari borasida olgan bilimlarini haykaltaroshlikda naqsh bo'laklari shaklini yasash, jarayonida va ko'plab boshqa mavzudagi mashg'ulotlarda mustahkamlaydilar. Shundan so'ng inson qomati haykalini,

haqqoniy tasvirlash mashg'ulotlari boshlanadi.

Bu esa talabadan bevosita inson plastik anatomiyasi bo'yicha yuqori darajadagi nazariy bilimlarni egallagan bo'lishini taqazo etadi.

Mazkur o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism haykaltaroshlik bo'yicha talabalarga borliqni turli materiallarda amaliy ishlashga o'rgatishga bagishlangan bo'lsa, ikkinchi qism plastik anatomiya fani, uning rivojlanish tarixi maqsad va vazifalari, odam plastik anatomiyasini o'rganish, dinamik va statik xolatlarda gavda harakati, plastik anatomiyani tasviriy san'atda qo'llash kabi masalalarga qaratilgan.

Bundan tashqari plastik anatomiya kursini nazariy jarayonida egallagan bilimlarini insonning skeleti, muskullar tizimi uning alohida qismlari va bosh suyagini amaliy mashg'ulotlarda ishlash jarayonida mustahkamlaydilar.

Haykaltaroshli san'ati haqida

Haykaltaroshlik san'atining qadimgi namunalari xalqlarimizning tarixini, e'tiqodlarini, estetik dunyoqarashlarini, turmush tarzini o'zida aks ettirgani bilan qadrlidir.

Qadimgi Misrda piramidalar va maqbaralar qurilishi podsho hukmdorligining qanchalik kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Bu maqbaralarga vafot etgan fir'avnlarni dafn etilardi. Eng katta piramida eramizdan 2600 yil avval Memfis yaqinida fir'avn Xeops uchun qurilgan. Piramidaning balandligi 146 metr, uning atrofini aylanib chiqish uchun 1 km yurish kerak. Uni qurishga 2300 dona xarsang tosh ketgan. Toshlarining eng kichigi 2 tonnaga teng. Ulkan Sfinks Piramidalar yaqinida butun bir qoyadan - sher boshli haykal o'yib ishlangan.

Fir'avnlarning biri Sfinks shaklida tasvirlangan, haykalning balandligi 20 metrdan ortiq (sfinks haykali keyingi betlarda berilgan). Tosh pahlavon shunday qo'rquv uyg'otar ediki, uni «Daxshat otasi» deb atashardi. Bu ulkan piramidalar va Sfinks orqali misrliklar ongiga fir'avnlarni oddiy odamlar emas, balki qudratli hudolardir degan fikrni singdirishga harakat qilganlar. Bu piramidalar hozir ham fir'avnlarni xokimiyatining guvohi sifatida hamon ko'kka bo'y cho'zib turibdi.

Fir'avn Tutankhamon, Eknaton hamda go'zal va aqlli malika Nefretetilar siymolari aks ettirilgan haykallar butun jahonga mashhurdir. Ayniqsa, malika Nefretetining portret - haykalida o'ziga xos go'zalligi, ichki ma'naviy olami, ayollarga hos nazokati mukammal ifoda etilgan. Bu portret - haykal o'z zamonasining mashhur haykaltaroshi Tutmes tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Nefreteti haykalining qimmati rangli qimmatbaho toshlardan me'yorida qo'llanilgani bilan ham izohlanadi. Yuz tuzilishi, bosh kiyim, bo'ynidagi taqinchoqlar tasvirida rangli toshlar juda

ustalik bilan ishlatilganki, haykaltaroshlik san'atida bu hildagi namunalar kam uchraydi. Nefreteti byusti timsolida rangli haykaltaroshlikning o'ta san'atkorona bajarilganligi guvohi bo'lamiz.



Nefreteti haykali

Piramidalardan topilgan haykalchalar fir'avn taxtda (qadimgi Misrdagi haykalcha), jangchilardan qochayotgan churi, qadimgi Misrdagi tibbiyotda ishlatiladigan bronza asboblar, kohin, nazoratchining maqbaradagi haykalchalari, fir'avn Tutanhomonning oltin tobuti (unda marxumning yuzi tasvirlangan), amaldorlarning yog'ochdan ishlangan haykalchalarga Misrliklarning e'tiqodiga qaraganda, ruh joylashib olar ekan. Shuning uchun ham marhumni ulug'vor bir qiyofada tasvirlaganlar, marhum o'lganidan keyin ham, hayot vaqtida qanday bo'lsa, shunday bo'lib qolishi, ya'ni fir'avn bo'lib qolishi kerak ekan. Biroq haykalchalarning yuz qiyofalari har hil bo'lgan; Misrlik haykaltaroshlar insonning yuz qiyofasini tasvirlashda katta mahoratga erishganlar. Haykallarning hayotiyiligini bo'rtirib ko'rsatish maqsadida, ularni buyoqlar bilan bo'yaganlar, ularga billur va rangli toshlardan ko'zlar ham yasaganlar. Natijada maqbaraga kirgan kishi tasavvurida bu haykallar bir necha ming yil ilgari yasalgan haykal emas, balki tirik odam qarab turgandek ta'surot uyg'ota olgan.

Qadimgi Yunonlarning va Rimliklarning bu boradagi izlanishlari ham e'tiborga molikdir.

Evropaning janubida Bolkon yarim oroli bo'lib, uning janubiy qismida uncha katta bo'lmagan tog'lik mamlakat - Gretsiya joylashgan. Gretsiyada temir, mis, kumush, marmar konlari qadimdan mavjud bo'lgan. Arxeologik tekshirishlar shuni isbotlab beradiki, eramizdan avvalgi III-II

ming yilliklarda qadimda, Yevropada 1 - sinfiy jamiyat va davlat tashkil topgan, fan va madaniyat ancha taraqqiyotga erishgan.

Gretsiyada IV-V asrlarda me'morchilik juda rivojlangan bo'lib, qadimda portiklarni yog'och ustunlar ko'tarib turgan. Portiklar (ayvonchalar) oftob nuridan saqlagan va shaboda esib turishiga xalakit bermagan. Keyinchalik yog'och ustunlar urnini tosh va marmardan ishlangan ustunlar egallay boshlagan. Ustunlar ikki uslubda ishlangan. Doriy va Ioniya uslubida Greklar binolar qurishda har ikkala uslubdan ham o'rinli foydalana bilganlar. Eramizdan avvalgi V-IV asrlardagi haykaltaroshlar yog'och, tosh, marmarga ishlov berishni mukammal o'zlashtira boshlaganlar, shuningdek bronzani eritib quyish texnologiyasini o'zlashtirganlar. Marmar haykallarni odam badani, rangi singari bo'yaganlar. Yogochdan ishlangan ayrim haykallar ustiga odam tanasining rangini beradigan fil suyagidan ishlangan yupqa plastinkalar yopishtirilgan. Haykallar shu darajada qoyilmaqom qilib ishlanganki, ular tirikdek nafas olayotgandek tuyulardi. Eramizdan avvalgi V-asrga kelib haykaltaroshlar odam gavdasining harakat qilib turgan holatlarini tasvirlashni bilib olganlar. Ular odamlarning yugurayotgan, nayza otayotgan yoki jang qilayotgan holatini tasvirlab ko'rsatganlar. Mashhur yunon haykaltaroshi Mironning «Disk otuvchi» asari har tomonlama mahorat bilan yaratilganki, uni ko'rgan kishi hayratga tushadi. Yunon asotirlarida keltirilishicha, Afrodita go'zallik va muhabbat ramzidir. Buni Afroditaga bag'ishlangan haykallarda ko'ramiz. Ular nafisligi, go'zalligi bilan tomoshabinni o'ziga rom kiladi. Bu o'rinda ayniqsa «Milos Afroditasi» haykali alohida diqqatga sazovordir. Eng qadimgi halklardan xindlar o'zlarining dini, e'tiqodi bo'lmish Buddaga oid minglab haykallar yaratganlar.



Disk otuvchi

Qadimgi doston va afsonalarda aytilishicha, haykaltaroshlar o'z asarlari uchun qahramonlar, mabudalarning poetik obrazlarini tanlab olganlar. Haykaltaroshlar odam gavdasini juda kelishga qilib tasvirlaganlar. Agar kishining qiyofasi xunuk bo'lsa, ellinlar buni tabiatning xatosi deb hisoblaganlar va o'z ishlarida san'at bu xatoni tuzatishi kerak deb to'g'rilaganlar. Haykaltaroshlar Zevs va Poseydonning sersavlat haykallari qiyofasida grek shahar davlatlarining dono xukumdorlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatganlar. Shaharning e'tiborli joylarida ellinlar o'z vataniga shon-shuhrat keltirgan lashkarboshilar, shoirlar, faylasuflar, musobaqa g'oliblarining haykallarini o'rnatganlar. Shu bois mazkur namunalar haykaltaroshlik tarixida klassik namunalar sifatida o'qib o'rganishga loyiq bo'lgan materiallar sifatida e'tiborlidir.

I-BOB.

O‘zbek milliy haykaltaroshlik san’atining rivojlanishi .

Haykaltaroshlik tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri. Bu san'atda borliq yorug' - soyaga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi hamda ularning uch o'lchovli xajmli - fazoviy xolati faqat shu san'at turi orqaligina aks ettira olinadi. Haykaltaroshlik Lotincha - sculptura so'zidan olingan bo'lib «kesmoq», «yo'nmoq» ma'nosini anglatadi. Ayrim hollarda haykaltaroshlik o'rniga «plastika» so'zini aytishadi yoki yozishadi. Bu so'zlar bir-biriga juda yaqin ma'noda bo'lsa-da, grekcha plastike so'ziga nisbatan «haykaltaroshlik» so'zi aniq bir atama hisoblanadi. Haykaltaroshlikda asosan tirik jonzodlarni, odamlar, hayvonlar, odamlarning hayotiy va ichki kechinmalarini, go'zalligini, tarixiy shaxslarni, buyuk siymolarni, fan arboblarni, bugungi kunning ijodkorlarini va mehnatkash halqning asl farzandlari obrazlarini turli xildagi materiallarda ifoda etiladi, shuning uchun ham bu asarlar asrlar davomida yashaydi. San'at va go'zallik tarbiyasi o'quvchilarning estetik didi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga, mehnatga ijodiy yondashish hislatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Haykaltaroshlik san'ati insonning uyg'un tarbiya topishiga zamin yaratadi. Haykaltaroshlikda g'oya, tuyg'u va fikr plastik gavda xarakati tilida beriladi. Odatda haykaltaroshlik asarlari o'z ko'rinishiga qarab, dumaloq va qabarik (relief) haykallarga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, maydon va xiyobonlardagi haykal va yodgorliklar, stol ustiga qo'yiladigan har xil haykalchalar shu turga mansubdir, haykaltaroshlikning ikkinchi ko'rinishi bo'lgan bo'rtma yoki qavariq qaykallar biror yuzaga bo'rttirib ishlangan bo'ladi. Bunday haykallar bir so'z bilan relief deb ataladi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Haykallar rangini asosan haykal uchun tanlangan material (masalan, marmar, granit, bronza va hokazo) belgilaydi. Ba'zan halk haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari ham uchraydi. Haykaltaroshlik asarlari ham san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab, qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda, mahobatli (monumental) haykaltaroshlik, mahobatli - bezakli (monumental dekorativ) va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Mahobatli haykallar muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Odatda mahobatli haykaltaroshlik asarlari o'zida

katta mazmunni anglatib, u bevosita muhit bilan bog'lanadi, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi talab etiladi. Bu esa unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Misol tariqasida Toshkent shahridagi «Amir Temur» haykalini ko'rishimiz mumkin. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari ochiq xavoda turishi sababli, uzoq turadigan mustaxkam qattiq materiallardan: tosh, granit, marmar, bronza va boshqa turli materiallardan yasaladi. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari uzokdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimidagi buklanishlar, undagi mayda detallar deyarli ko'rsatilmaydi.

Istiroxat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallar mahobatli-bezakli haykaltaroshlik asarlari bo'lib, bevosita o'sha borliq bilan bog'liq bo'ladi va ularning mazmunini yanada to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli qabariq tasvirlar amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham bezak haykallariga kiradi. Turli favorralar, panjaralar, ramziy darvozalar, chinnidan yasalgan turli haykallar loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu janr ko'rinishlari xisoblanadi.

Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil fikrni, g'oyani anglatadigan san'atning boshqa turiga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalar, muzeylarga qo'yish, intererlarga o'rnatish uchun mo'ljallangan bo'ladi va bu turda voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi. Inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ruhiy kechinma va kayfiyati ham shu turdagi haykallarda ochib beriladi.

Haykaltaroshlikda ijodkor yorug'-soyalar o'yinidan foydalanish orqali o'z haykallarini ta'sirli va jozibali bo'lishiga erishadi. Haykal yorug'-soya bilan tirik, ya'ni nur tushishi bilan u ham jonlanadi, yorug'likning o'zgarishi bilan undagi yorug'-soya tovlanishi ham o'zgaradi, natijada, undan tomoshabin oladigan ta'surot ham o'zgarib boradi. Bu narsa ayniqsa, mahobatli va mahobatli-bezakli haykallar uchun juda qo'l keladi. Chunki maydon yoki xiyobonga o'rnatilgan haykal ertalabki tong quyoshining nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidagi quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Tungi oy nurlarida shu haykalning o'zi yana bir go'zallik kashf etadi. Shuning uchun ham haykaltaroshlik asarlari turli paytda kishida turlicha ta'surot qoldiradi.

Haykaltaroshlikda insonning faqat tashhi ko'rinishi, tinch turgan xolati yoki xarakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyatlari tugamaydi. Uning xayajon va g'amginligi, kelajakka

intilishi va o'tmishga qayg'urishi ham o'z ifodasini topadi. Haykaltaroshlik asarlarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati ham qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlarni to'g'ri ifodalashi muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri topilgan xarakat, yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo'lishiga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham dastgohli haykaltaroshlik asari haqida tomoshabin bilan «suxbat ko'ra oladi» - deyiladi.



*Farro tasviri tushirilgan
Kushon davri tangasi*



Sasoniylar davri kumush idishi. Eron shohi Shopur II ovda. IV asr.

Haykallar dumaloq (byust) yoki qabariq (rel'ef) ko'rinishda bo'ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi. Relief italyancha so'z bo'lib, «relevio» qabariq, bo'rtib chiqqan degan ma'noni bildiradi. Reliefni faqat old tomonidan ko'rish mumkin. Unda kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi, hayotda sodir bo'ladigan voqealar ma'lum muhitda ko'rsatiladi. Shuning uchun bunday relief ba'zan san'atda perspektivali relief deb ham yuritiladi. Relief uch turga Relief, Barelef, Gorelefga bo'linadi. «Barelef» frantsuzcha «VAS-relief» so'zidan olingan bo'lib, past relief degan ma'noni anglatadi. Barelef asardagi qabariqlar tekis yuzaga nisbatan bir oz bo'rttib chiqqan bo'lib, ularda ba'zan yorug'-soya uyinlari keskin sezilmasligi ham mumkin. Bu xususiyat tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo'rtma tasvirlarda ko'rinadi. Barelef ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini va

me'morchilik binolarini bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi Yunonliklar maishiy hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar: ko'za, guldon, qurol-aslaxalarni Bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlarini turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar bilan go'zallashtirganlar. Xozirgi kunda ham binolarni bezashda barelefdan keng foydalanilmoqda. Bunga misol qilib Toshkent metropoliteni bekatlaridagi haykaltaroshlik ishlarini ko'rsatish mumkin. «Gorelef» ham frantsuzcha so'z bo'lib «hout - relief» yuqori relief ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzaga nisbatan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lishi va ba'zida o'z ko'rinishi bilan yumaloq haykalga ham o'xshashi mumkin, lekin bu haykalning biror hismi yuzaga albatta yopishgan bo'ladi. Barelef usulida ishlangan haykaltaroshlik namunasi sifatida Milliy raqs va xoreografiya oliy maktab peshtoqiga ishlangan kompozitsiya (haykaltarosh N.Krimskaya) ni keltirish mumkin.

Gorelef so'zi ham frantsuzcha bo'lib, «baland» relief ma'nosini bildiradi. haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshgan bo'lishi shart. Gorelefga ko'plab tarixiy voqealarga bag'ishlab ishlangan yodgorliklar misol bo'lishi mumkin.

Bu yodgorlikdagi ayrim haykallar, masalan, oldinda tasvirlangan obrazlar, yuzaga nisbatan juda bo'rtib chiqqan bo'lsa ham lekin ular asosiy kompozitsiya yuzasiga yopishgan holda ishlangan. Bu yodgorliklarda reliefning ikki turini ham uchratish mumkin. Lekin gorelef unda yetakchi o'rinni egallaydi.

Reliefning yana bir turi «Sgraffito» bo'lib, mahobatli san'atda ishlatiladi. Sgraffito italyancha so'zdan olingan bo'lib, o'yilgan, tirlangan ma'nosini anglatadi. Bunday releflar odatda o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini tasvir xisobiga ko'zga tashlanadi. Bunday reliefni imkoniyati bir oz cheklangani uchun amalda juda kam qo'llaniladi.

Xozirgi kunda ham mustaqil O'zbekistonimiz san'atkorlari haykaltaroshlikning bu ko'rinishiga qiziqishlari juda katta - relief bilan me'moriy inshootlarni, ansambllarni, yodgorliklarni badiiy bezashda keng ko'lamda foydalanishmoqda



*Sher bilan olishayotgan Gerakl. haykaltarosh Lisipp. Er.oldingi
V asr. Marmar*




Amir Temur ko'rsatmasiga ko'ra 1399 yil Usto Al-Aziz tomonidan ishlangan bronza qozoni. Diametri 2 m.45 sm. Og'irligi 2 tonna. Arab yozuvlari va naqshlar bilan bezatilgan.

Haykaltaroshlik asarlarini yaratish uchun turli xildagi materiallardan foydalaniladi. Bu materiallar haykalga turli harakter va mazmun berishda hizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulugvorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmardan ishlangan haykallar nozik, ko'rkam ko'rinadi.



Ptolomey va Arsion Filadelflarning «Komeya Gonzag» boʻrtma tasviri. Eramizdan avvalgi III asr. Uch qavatli Sardoniks qimmatbaho toshdan ishlangan.



Qadimgi Misr haykaltaroshligi.



*Dekorativ bezatilgan qilich qini.
Turkiya. XVI-XVII asrlar*



Chinni kŷza. Rossiya. XIX asr.



«Musikachilar». Ayrtomdan topilgan frizlar. Oxaktosh. II asr.

Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanishi mumkin. haykaltaroshlik materiallari quyidagilardan iborat: plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatbaho metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi.

Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi.

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Bunga misol qilib Ona Vatanimizning ko'plab shaharlarida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoirlarning haykallarini keltirishimiz mumkin.



Jan Antuan Gudon. (1741-1824 yillar) Volter haykali. Marmar. 1781 y.



*Tojikistonning Garm
viloyatidan topilgan oltin
haykalchalar. VII-VIII asrlar*



*Damir Ro'ziboev
Saida 1962. Yog'och.*

Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Monumental haykaltaroshlik asarlariga hos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzok vaqt turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bulardan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, ularda katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.



Shoh Amenxotep III haykali. Qora Granit. Eramizdan avvalgi XIX asr.



*Xalchayondan topilgan jangchi
haykali. Bëyalgan loy. Yangi eraning
boshlari.*

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab Istirohat bog'lari, hiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmunni anglatib me'morchilik va tevarak-atrofga bog'liq bo'lmagan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida



Mirzo Ulug'bek haykali.



Amir Temur haykali.


esa obrazlarni bir oz yengil yumoristik tarzda talqin etib, bo‘rttiriladi .



. A.Muxtorov. «Taka urishtirish», «Xo'ja Nasriddin». 1972- yil.

Bunga xalq badiiy ijodiyoti haykalchalarini misol qilish mumkin. haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil mazmunni anglatadigan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalarga, intererlarga qo'yish uchun mo'ljallab ishlanadi.



Dekorativ panjaralar namunasi.

Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi. haykaltaroshlik san'atining bu turida inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyati hamda xarakterini ochib berish imkoniyatiga ega. Dastgoh haykaltaroshligining ko'rinishlaridan biri byustdir. U odam portretini gavdasi bilan aks ettiruvchi dumaloq haykallar gruppasiga kiradi. haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi-terrakota hisoblanadi. (terrakota-italyancha so'z bo'lib pishrilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, xumdonda pishrilgan haykaltaroshlik asarlaridir.



*Erkak va ayol haykali.
Terrarakota. Asr
boshlari. Varahsha*

haykaltaroshlik asarlarida insonning faqat tashqi ko‘rinishi, tinch turgan holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan kifoyalanmay, undagi ichki kechinmalar, his-hayajon va g‘amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham o‘z ifodasini topadi. haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati, qalbidagi iztirob ishonarli talqin etiladi. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, tasvirlash qoidalarini puxta egallaganligi odam gavdasi va mimik o‘zgarishlari borasida plastik anatomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo‘lishini taqazo etadi. To‘g‘ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta’sirli ifodalash uchun zamin yaratadi.



Xaykalchalar. Terrakota. Sinszyan. Asr boshlari.

I-1. O'rta Osiyo haykaltaroshligi

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qanchalik uzoq va ularning diniy e'tiqodlari o'zgacha bo'lganligidan qat'iy nazar, biz bilan olis o'tmishni bog'lab turadigan nozik jixatlari bor. Shulardan biri ajdodlarimiz yaratgan ajoyib san'at namunalaridir.

Qadimgi odamlar turli dinlarga e'tiqod qilishgan va o'z e'tiqodlarini iloxiylashtirish maqsadida haykallar yaratishgan. Ayniqsa, ana shu haykallarda afsonaviy haykallarga xos ramziy obrazlar o'z ifodasini topgan. O'tmish san'ati namunalarida hayotning barcha qirralari gavdalandirilgan. Kiyim-kechaklarga, shuningdek, uy jixozlaridagi tasvirlarda ham shunday namunalarni kuzatamiz. Bizgacha saqlanib qolgan namunalarga esa loydan, tosh, yog'och, marmar, fil suyaklaridan ishlangan. Odamlar haykallarga va boshka tasvirlarga o'z dunyoqarashlari, e'tiqodlarini jo qolishga intilganlar.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Axmoniylar bosqinchiligiga duch kelish va shu davrdagi Naqshi Rostam, Buxstun, tasv-ir yozuvlari paydo bo'lishi xam Eron va Markaziy Osiyo xalqlari san'ati bilan bog'liq namunalarni vujudga kelishiga sababchi bo'lgan. Shuning uchun ham tasviriy san'atning axmoniylar davriga oid namunalarni qadimgi eronliklarning markaziy shahri Perespol va uning atrofidagi yodgorliklarda uchratamiz.



Baqtriyalik jangchi.

Xolchayon. Er.av. I-asr.

O'zbekiston Badiiy akademiyasining San'atshunoslik instituti xodimlari tomonidan Dalvarzintepada arxeologik qazishmalarni olib borish jarayonida topilgan 115 dona oltindan ishlangan ashyolar Baktriya davri ustalarining mahoratidan darak beradi.



Dorator boshi.

Merv xudosi. Terrakota. II-III asr

Qadimgi Xorazm tarixini chuqur o'rgangan olim S.P.Tolstov Jonbos qal'ani «Haykallar muzeyi, Tuproqqal'ani esa «Tangalar muzeyi» deb bejiz atamagan.

Haykaltaroshlik qadimgi Farg'ona, Kang davlatida ham keng ko'lamda rivojlangan. Buyuk ipak yo'lining ta'siri o'tmish tasviriy san'atiga ham ta'siri katta bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining halklar o'rtasidagi san'ati uyg'unlashuviga ta'sir o'tkazganini Kushonlar davri misolida yanada yaqqolroq ko'ramiz. Darxaqiqat, O'zbekiston tasviriy san'ati tarixining katta bir qismi kushonlar davri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrda qadimgi xalqlarning turlicha dunyoqarashlari tasviriy san'at asarlarida o'z aksini topgan. Bularning birida buddizmga xos belgilar aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi bir namunalarida Zardushtiylar e'tiqodi ramzlarini ilg'aymiz. Kushonlar davri san'atning xilma-xilligi bu imperiya juda katta xududni, ko'p xalqlarni birlashtirganligi bilan ham izoxlanadi. Kushonlar davrida madaniyat va san'at yuksak pog'onaga ko'tarilgan.

Kushon podsholigi bu aslida siyosiy tushuncha bo'lib, uning jug'rofiy nomi Baqtriya deb ataladi. Buyuk Baqtriya xududiga oid yaratilgan tasviriy san'at asarlari o'zining go'zalligi nafisligi bilan olqishga sazovordir. Bu davrda haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlari keng rivojlangan. Ko'p hollarda haykallarning diniy xarakterga ega ekanligi ochiq ko'rinadi. Baqtriya xududidan topilgan haykallarda sevgi, oilaviy baxt, serhosillik kabi g'oyalar olg'a suriladi.

Arxeologik izlanishlar jarayonida Buddaning tik turgan holatidagi, chordona qurib o'tirgan haykallari, xatto yotgan xolatdagi ko'rinishlari aks etgan haykallar topilgan.

Kushonlar davrida budda ibodatxonalarining yaratilishi, o'z navbatida, buddizmga xos badiiy bezaklar ishlanishiga sababchi bo'lgan. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan, I asrning ikkinchi yarmiga oid Vima Kadfiz tangasining old tomonida shoh o'ng qo'li mexrob uzra cho'zilgan xolda, boshiga yalov tasmali uzun kulox kiygan xolatda tasvirlangan. Olimlarning fikriga qaraganda, bu tangadagi doira shaklidagi yunon yozuvi «Shohlar shohi Vima Kadfiz Kushon» degan ma'noni anglatadi.

Eftalitlar, Turk xoqonliklari davrida ajoyib haykallar, nafis devoriy suratlar yuzaga keladi. O'tmish tasviriy san'at me'rosimizning eng xarakterli tomonlaridan biri shunda ediki, ajdodlarimiz boshqa xalqlar san'atidan ta'sirlanibgina qolmasdan, ularga o'z ta'sirini ham o'tkaza olgan. Shu asosda xalqlarning uyg'unlashgan, yuksak tasviriy san'at namunalari yaratganligi tarixdan ma'lumdir. Sug'diyoni, Baktriya, Parfiya, Choch, Xorazm, Kadimgi Farg'ona xududlaridan topilgan qadimiy san'at ashyolari bizga moziy dunyosidan xabar beradi.

Respublikamiz xududidan ko'plab haykaltaroshlik san'ati ashyolari topilganini biz yuqoridagi dalillarda ko'rdik. O'zbekiston Badiiy akademiyasi San'atshunoslik institutining muzeyida saqlanayotgan miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga mansub Mirshodi haykali inson qiyofasi tasvirlangan dastlabki haykallardan biri desak mubolag'a bo'lmas.

Haykaltaroshlik san'atidagi barcha talab va qonuniyatlarga javob bera oladigan, qiyomiga yetkazib ishlangan haykallarning bir turkumi Xalchayonda topilgan. Milloddan avvalgi I-asrga oid xarbiy kishining bosh qiyofasi tasvirlangan haykallarda bunday jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, inson gavdasining bosh qismini yasash o'ta murakkab jarayondir. Ikki ming yil muqaddam ishlangan bu haykalda bosh skeletning tuzilishi aniq amalga oshirilganining guvohi bo'lish mumkin. Yuz qiyofasidagi, peshona, burun, ko'z, lab kabi a'zolarining shakllari me'yoriga yetkazilib ishlanganligidan haykaltarosh mahorat va malakaga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

San'atshunos N.Oydinovning tadqiqotlarida O'rta Osiyo haykaltaroshligiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning yozilishiga atoqli olim G.A.Pugachenkov tomonidan olib borilgan chuqur o'rganishlar Surxondaryoning Denov tumanidagi Xalchayon madaniy yodgorligidan topilgan haykallarning ko'pchilik qismida buddizm alomatlarini borligini va o'sha davrda buddaga e'tikod qilganligidan dalolat beradi.



Amudaryoning eng tor joyi Afgonistonning xozirgi Xayriton shahridir. Daryoning bu beti esa Ayritom deb ataladi. Ilk bor buddaga oid haykaltaroshlik namunalari ana shu Ayritomdan 1932 yili chegarachilar tomonidan tasodifan topib olingan. Bu haykallarda musiqa asboblari ushlagan uch odam tasviri aks ettirilgan. U yerda arxeolog olim M.Ye.Masson 1933 yili tadqiqot ishlarini olib borib bir qancha haykallarni topishga muvaffak bo'lgan. Ayniqsa, bulardan qo'shnay chalib turgan, ikkita lanakni bir-biriga urib turgan, gulchambar ushlab turgan haykallarni misol keltirish mumkin.

Qadimgi tasviriy san'at va buddaga oid diqqatga sazovor inshootlardan yana biri qoratepa yodgorligidir. Bu yerdan topilgan tasviriy san'at namunalarida dinning o'ziga xos xususiyatlari yorqinroq mujassamlashtirilgan. Shuningdek, Fayoztepadan haykal o'rnatiladigan stuli topilgan. Ayni paytda San'atshunoslik institutida saqlanayotgan, Dalvarzintepadan topilgan miloddan avvalgi I-asrga mansub Devatto (buddapersonaji) boshi hamda Termizdan 30 km g'arbda joylashgan Kampirtepa yodgorligidan topilgan Buddaning haykallari har tomonlama me'yoriga yetkazib ishlangan san'at asarlaridir. Bu haykallarni badiiy va anotomik jihatdan taxlil qilib, uni yaratgan kishiga qoyil qolsa arziydi. Bir qarashda nafis va nozik xislatlar ifodalangan yuz qiyofasini astoydil kuzatsak, ichki ruxiy kechinmalar bilan burkangan jiddiy bu salobatli obraz ko'z oldimizda gavdalanadi. Devatto boshi haykalida sochlaridagi jingalak tasvirlar asarning go'zalligini boyitibgina qolmasdan, ma'naviy va psixologik jixatlarini o'zida yaratib turgandek tuyuladi. Kampirtepadan topilgan Buddha haykalining bejirim qiyofasida esa o'ychanlik va donishmandlik mahorat bilan tasvirlanganligi haykaltaroshning kuchli mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi. So'z haykalning ishlanish uslubidagi yutuqlar xaqida ketar ekan, insonning bosh qismi tasvirlangan bu asarlar kalla suyagining anotomik tuzilishi jixatlariga javob bera olishini aniqlab ko'rish maqsadga muvofikdir. Ma'lumki, rassom va haykaltaroshlar inson bosh qismining konstruktiv asosi - kalla suyagi (cherp) ni mukammal urganib chiqadilar. Kalla suyagi ikki qismga ya'ni bosh qism va yuz qismiga bo'linadi. Shunga ko'ra haykaltarosh portret ishlash jarayonida ma'lum qonun-qoidalarga rioya qiladi. Kampirtepadan topilgan «Budda» va Dalvarzintepadagi «Devatto boshi» haykallarida bunday xususiyatlarga to'la amal qilinganiga guvoh bo'lamiz. Yuz qismiga tegishli ko'z, burun, lab, quloq va yonoqlardagi o'ziga xos shakllar hamda holatlar proporsional muvozanatlarga, simmetriya qoidalariga javob berishi bilan birgalikda aniq, sodda qilib ishlangan. Shuningdek peshona do'mbog'i, boshning tepa, orqa (miya) qismi, ensa kabi qismlari ham anotomik tuzilishga ko'ra to'g'ri topilgan va bajarilgan. Bunday san'at asarlari sirasiga Fayoztepadan

topilgan Budda yoki Budda safdoshining bosh qismi, Dalvarzin tepadan topilgan boshiga toj kiygan Kushon shaxzodasi va boshka o'nlab haykallarni misol keltirish mumkin.

Arxeolog olimlar fikricha, son-sanoksiz haykal siniqlari bilan to'la Dalvarzintepa qadimgi Kushon podsholigining markazi bo'lgan.

Umuman, o'lkamiz xududidan topilgan haykaltaroshlik namunalari turli g'oya va mazmunlarga, rang-barang ko'rinishlarga ega. Ana shunday alohida xususiyat ko'rinishlar aks ettirgan san'at namunalaridan biri Samarqand Afrosiyobidan topilgan VII-VIII asrlarga mansub ostodon qopqog'iga ishlangan odamning bosh qismi haykalidir. qiziqarli tomoni shundaki, haykalning yuz tuzilishida o'zbek xalqining afsonaviy qaxramoni Nasriddin Afandi qiyofasiga xos nimalarnidir eslatuvchi jixatlari bor. Haykaltarosh jiddiy izlanish uslubiga ega bo'lishi bilan mahalliy xalqqa xos obrazni nihoyatda xarakterli ifodalay olishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, Samarqandning Tayloq degan joyidan topilgan ostodon qopqog'iga ishlangan ayol boshi haykal tasviri Varaxshadan topilgan (VI-VII asrlar) ayol qomatining yarmidan ko'proq qismi tasvirlangan haykallar shunday milliy an'analarni o'zida namoyon qiladi.

Biroq, VII-VIII asrlardan boshlab O'rta Osiyoning Arablar tomonidan bosib olinishi bilan maxalliy xalq tasviriy san'atini bir necha tur va janrlarini ta'qiqlab quyiladi. Shulardan biri haykaltaroshlik san'ati ham mutloq ta'qiqlangan edi. Chunki Islom dini talablariga ko'ra jonli narsalarni tasvirlash, ayniqsa, odam qomatini (haykalini) tasvirlash mumkin emas edi. Shu sababli O'rta Osiyoni ruslar tomonidan bosib olinishiga qadar O'zbekistonda tasviriy san'atning portret, animalistik janrlari va haykaltaroshlik turi bilan xech kim shug'ullanmay qo'ygan edi.

O'zbekistonda XIX asr oxirlaridagina haykaltaroshlik asta-sekin ko'rina boshladi. Haykaltaroshlik Knyaz Romanov saroyi (Toshkent) oldiga o'rnatilgan hayvonlar haykali (it, kiyik), Moxi-Xosa (Buxoro) eshigi oldiga sherlar haykali O'rta Osiyodagi dastlabki haykaltaroshlik yodgorliklaridandir. Chunki arab bosqinidan so'ng (VIII asr) bu yerlarda, umuman musulmon sharqida yuqorida ta'kidlaganimizdek, haykaltaroshlikning deyarli hamma turlari to'xtatilgan edi. XIX asr oxirlaridan esa shu sohada ijod qilishga intilish paydo bo'la boshladi. Masalan, 1886 yili Toshkentda bo'lib o'tgan ko'rgazmada Usta To'xta Sodik Xo'jaev albastrdan yasagan ot va kiyik haykalchasini namoyish etganligi ma'lum.

XIX asr o'rtalaridan Markaziy Osiyoga kela boshlagan xorijlik rassom va haykaltaroshlar 40dan ortiq bo'lib, ularning ayrimlari keyinchalik Markaziy Osiyo xududida jumladan, O'zbekistonda butunlay qolib, uni o'zlarining ikkinchi vatanlariga aylantirdilar, shu yerda

murabbiylik kilib, Yevropaga san'at asarlarini maxalliy yoshlarga o'rgatdilar. XIX asrning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda bo'lgan rassomlar ichida rus rassomlari V.V.Vereshagin, N.N. Karazin, D.Veletev, Dmitriy Kavkazskiy, R.Zommer, O. Fedchenko, xaykaltarosh O.Mikeshin va boshqalar bor edi.

Haykaltarosh Mikeshin Mixail Osipovich (1835-1898) rus badiiy akademiyasida ta'lim olgan. Novgoroddagi "Rossiyaning ming yilligi" (1862), Peterburgdagi "Ekaterina II" (1873), Kievda «Bogdan Xmelnitskiy» (1870-88) yodgorliklarining muallifidir. Uning ijodi XIX asr ikkinchi yarmidagi akademizmga yaqin. XIX asr oxirlarida O'zbekistonda bo'lgan kezlarda qalam va akvarelda suratlar ishladi. Shulardan ayrimlari O'zbekiston san'at muzeyida saqlanadi. Bu asarlarda me'moriy yodgorliklar, ularning vayronalarini aks ettirilgan («Buxoro yaqinidagi yodgorlik», 1887) Mikeshin O'zbekistonda (Turkistonda) bo'lganida rus bosqinchilari xotirasiga atab, yodgorlik yasagan. Bu yodgorlik xozirgi Amir Temur hiyoboni yaqinida o'rnatilgan. U chorizm ag'darilgandan keyin olib tashlangan.

XX asr boshlarida Turkiston badiiy hayoti, ayniqsa Toshkentda gubernatorlik markazi ochilishi bilan o'zgacha mazmun kasb eta boshladi. Bu yerda yashagan ijodkorlar Peterburg va Moskva badiiy hayotidagi yangiliklarni o'z faoliyatlariga tadbiq etishga xarakat qilishi rang-barang oqim va yo'nalishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Shu tufali demokratik san'at an'alariga sodiq san'atkorlar bilan g'arb usullari asosida ijod qilish ishtiyojida ijodkorlar o'rtasida musobaqa avj oldi. Ko'rgazmalar uyushtirildi, rassomlik to'garaklari tashkil etildi, dastlabki muzeylar ochildi. Albatta, O'rta Osiyodagi bu badiiy hayot rus madaniyatining bir qismi sifatida mavjud edi.

Lekin toma-toma ko'l bo'lur deganlaridek, rassomlarning maxalliy folk oldida borlik tasvirini, ayniqsa jonli narsalarni, duzax jazosidan qo'rqmay ishlashlari mutaassib dindorlar obro'sini pasaytirdi, soxta diniy ko'rsatmalarga ishonchsizlik hissini tug'dirdi. An'anaviy folk san'ati mumtoz me'ros bilan birga yangi jahon san'ati va madaniyati turlari rivojlana bordi. Ayniqsa Yevropa san'ati ta'siri bunda salmoqli bo'ldi. Maxalliy rassomlar ichida buxorolik Axmad Donish, qo'qonlik musavvir Xoji Nosir Muxammad Shokirboyni e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, yozuvchi shoir, rassom, xattot sifatida topilgan Axmad Donish (1827-1887) ijodini alohida qayd etish lozim.

XX asrning ikkinchi yarmidagina rus haykaltaroshlari tomonidan A.Navoiy, Ulugbek, Nizomiy Jambul, Xamza kabi o'zbek namoyondalarining haykallari yaratila boshlandi. Shuningdek, A.Xidoyatov, M.Ubaydullaeva, O.Yo'ldosheva, Z.Mutalova. Y.Oxunboboev kabi taniqli mehnat qaxramonlarning haykallari ishlendi.

60 yillardan boshlabgina M.Musaboev, A.Boymatov, X.Husniddinxujaev, K.Salohiddinov, A.Axmedov, J.quttimurodov, D.Ruziboev kabi o'nlab iste'dodli o'zbek haykaltaroshlari ijodiy san'atga kirib kela boshladi. Ular o'zbek xalqining o'tmishi, bugungi kuni, turmushi, mehnat faoliyati va ijodiy ishlarini o'z haykallarida ifodalay boshladilar.

I-2. Mustaqillik yillari O'zbekiston haykaltaroshligi va o'zbek haykaltaroshlari

Haykaltaroshlarning ijodiy uslublari 60-80 yillar an'analaridan keskin farqlanmay tursa ham, o'zbek xalqining tarixini va madaniy me'rosini haykaltaroshlar chuqur o'rganib, badiiy jarayonda ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Buyuk vatandoshlarimiz - Imom Buxoriy, at Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshbandiy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'iloniylarning nomlari qayta tiklanmoqda. Utmishning buyuk mutafakkirlari, shoirlari va musavvirlari-Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Farg'oniy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muxammad Marod Samarqandiy, Zaxriddin Muxammad Bobur hamda jadidchilik xarakati vakillarining nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorlik majmualari qurilib, kitoblar chop etilmokda.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida Chirchiq shahrining markaziy shox ko'chasida va poytaxtimizning Milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorliklarni (E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarov, 1991 y.), 2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Raxmatullaev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan A.Navoiy haykali, Toshkent shahrining gavjum xiyoboni markaziga o'rnatilgan. A.Temurning mahobatli otliq haykali (I.Jabborov, K.Jabborov, 1993 y.), Sohibkironning ona yurti Shaxrisabz va markazlashgan davlatning poytaxti Samarkand shahrida o'rnatilgan Amir Temurning mahobatli haykallari (I.Jabborov, K.Jabborov 1996 y), Farg'ona va quva shaharlarida o'rnatilgan Axmad Al - Fargoniyni mahobatli haykallari (I.Jabborov, K.Jabborov 1998 y), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi yodgorligi (I.Jabborov 1998 y), Andijon shahriga o'rnatilgan «Zaxriddin Muxammad Bobur» (R.Mirtojiyev 1993 y), Toshkent shahriga o'rnatilgan «Abdulla qodiriy» (R.Mirtojiyev 1994 y). Andijon shahriga o'rnatilgan «Cho'lpon» (R.Mirtojiyev 1997 y), Termiz shahrida bunyod etilgan epik qaxramon Alpomishning ramziy haykali (A.Raxmatullaev, K.Norxo'rozov, U.Mardiev,

P.Podosinnikov), Namangan shahrida bunyod etilgan «Zaxriddin Muxammad Bobur» (M.Raxmonberdiev 1998 y)haykallarini qayd etish joizdir.

Dastgohli haykaltaroshlik san'atida zamonaviy va milliy an'analar o'zaro uygunlashtirildi. Bu davr dastgohli haykaltaroshlik san'atining o'ziga xosligini yana bir ko'rinishi, realizm an'alarining amaldan surib chiqarilishi va badiiy ifodaviylikning yetakchiligida bo'ldi. Akademizm uslubiyoti faqat badiiy ta'lim jarayonidagina saqlanib qoldi.

Bu davrda dastgohli haykaltaroshlik san'ati vakillari tomonidan T.Tojixujaevning «Ilon izi», «Kurash», «Raqs», «Chavandoz», D.Ruziboevning «Navro'z malikasi», «Navro'z», J.quttimurodovning «Ayol», «O'tirgan soxibjamol», «Amudaryo», «Oqqush», «Shohli Iskandar», R.Mirtojievning «Sayyox», «Bobur», «Temur Malik», «Yomg'ir», «Behzod», A.Xotamovning «Suvchilar» E.Esonovning «Amir Temur», S.Sharipovning «Xattotlik» kabi ko'plab asarlari yaratildi.

Istiqlol davri haykaltaroshligining yaqqol namoyondalaridan I.Jabborov, K.Jabborov, A.Aliev, A.Raxmatullaev, N.Bondiladze. V.Degtyarov, R.Mirtojiev, P.Podosinnikov, A.Ryabsev, P.Axmedzyanov, Sh.Usmonov, K.Norxurozov, D.Ruziboev, T.Tojixojaev, J.quttimurodov, U.Mardiev kabi bir qator ijodkorlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davr haykaltaroshligida milliy mafkuraga asoslangan mavzular va qisman yangi badiiy shakllar kashf etilganligini xam e'tirof etish lozim.

Bugungi kunda haykaltaroshlik mustaqillik munosabati bilan o'zining chinakam rivojiga kirib, o'zbek haykaltaroshlari xalqimizning tarixini, bugungi kunini ro'y-rost, haqqoniy ifoda etib, xalqimizning milliy istiqbolini baralla **kuylamokdalar**. Shuningdek, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati o'zining zafarli istiqbolli kelajagini ham belgilab bormoqda.

O'zbek haykaltaroshlari.

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati ham aniq bir qiyofani o'zida jamladi. Bu borada samarali ijod qilgan haykaltarosh Xakimxo'ja Xusniddinxojaev, Yakov Shapiro, Abdumomin Boymatov, Eynulla Aliev, Joldosbek quttimurodov, Anvar Ahmedov, Ilhom Jabborov, Ulug'bek Mardiev, Ravshan Mirtojiev, Anvar Raxmatullaev, Muhtor Obloqulov, Damir Ro'ziboev, To'lagan Tojixojaev, Azamat Xotamov, qurbon Normurodov, Ulash O'roqov, Turkman Esonov, Mahmud Rahmonberdiev kabi ko'plab haykaltaroshlik san'ati ustalarini misol keltirish mumkin.

Atrof-muhitning badiiy boyligi xalq yoki millpatning ma'naviy qiyofasining o'ziga xos

gavdalanishida monumental haykallar alohida o'rinda turadi. Respublikamizning go'zal Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, Xorozm kabi shaharlarida sayr qilsak, ko'plab salobatli haykallarga duch kelamiz. Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Hamid Olimjon, /afur /ulom kabi o'zbek xalqining sevimli farzandlari obrazlari muhirlangan monumental haykallar ozod va obod o'lkamizga o'zgacha fayz bag'ishlab turibdi.

Monumental haykallarda qonli janglarda halok bo'lgan ota-bobolarimiz qiyofalari ham mukammal ifoda etilgan. Afsonaviy xalq qahramonlari dostonlardagi Alpomish, Farhodu Shirin obrazlari o'zgacha talqin qilinmoqda. Yurtimizda va o'z qadr-himmatini tanib bormoqda. Xullas, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati xalqimiz ruhiyatiga mos shaklu shamoyil va qadr-qiymatini topib bormoqda.

Jo'ldosbek Quttimurodov

O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi qoraqalpog'iston tasviriy san'ati ravnaqiga xissa qo'shib kelayotgan atoqli haykaltarosh Jo'ldosbek quttimurodov o'z xalqining ma'naviy go'zalligini jonlantirish bilan tomoshabinlar xurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda. Haykaltarosh Jo'ldosbek quttimurodov 1934 yilda Kegeyli tumani Oktuba qishlogida tug'ilgan. Maktabdan so'ng Respublika rassomchilik bilim yurtida A.P.Lunyovdan ta'lim oladi. Keyinchalik san'at institutida tasviriy san'at sirlarini astoydil o'rganadi. Shu tarzda Jo'ldosbek quttimurodov 1960 yillarda haykaltaroshlik san'atiga erkin ijodiy izlanishlar bilan dadil kirib keladi.

Jo'ldosbek quttimurodovning «Orzu» (1960), «Arslon» (1965), «Bosh kiyimli kiz» (1965), «Kelin» (1965) kabi bir qancha asarlarida go'zallik, latofat, qoraqalpok xalqiga xos an'analar mujassamlashganini ko'ramiz. Haykaltaroshning ijodiy kamoloti, ayniqsa «Iskandar Zulqarnayn» (1967), «Shamol» (1967-68), «Nihol» (1970), «Beruniy», «Ohuqush va qiz» (1970-78) kabi asarlarida yaqqol seziladi. Uyg'un tasvirlanishlar, ya'ni badiiy obrazning jonliligi, butunligini ta'minlash J.quttimurodov asarlarida xar jixatdan o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa «Baliqchilarni qutkarayotgan Anaxita» (1981), «Ikkiyuzlamachi ayol» (1980), «Farxod» (1981), «Guldursun» (1982), «O'tirgan qiz» kabi haykallari e'tiborga molik.

Jo'ldosbek quttimurodov nafaqat qoraqalpog'iston, balki O'zbekiston tasviriy san'atida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan haykaltaroshlikda o'z yo'li va o'z uslubini yarata olgan san'atkordir. U o'z izlanishlarida jahon madaniyatidagi ilg'or namunalarga tayanib, sharq haykallarining an'ana va turmush tarziga xurmat ehtirom bilan qaraydi.

Ilxom Jabborov

Ilxom Jabborov 1945 yili 30 iyunda Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanining To'qay qishlog'ida tavallud topgan.

Ilxom Jabborov o'rta ma'lumotni olgandan so'ng 1961 yili Toshkentdagi badiiy bilim yurtining teatr butaforiyasi bo'limiga o'qishga kiradi. Tasviriy san'atning markaziy maktablaridan bo'lmish mazkur bilim yurtida rasm saboqlarining barcha qirralari o'rgatilar edi. Teatr butaforiyasi rassomi bo'lishning murakkab jihatlari mavjudligi sir emas. Bilim yurtida unga Taniqli rassom Grishenko ustozlik qilgan. Talabalik yillari Ilhom Jabborov hayoti va ijodida tasviriy san'at asarlarini o'rganishning alohida bir maktab vazifasini o'tagan. Badiiy bilim yurtini tugatgach, Namangan teatrdagi ijodiy faoliyatini boshladi. Atoqli musavvir Ural Tansiqboev ta'kidlaganlaridek, san'atkor bo'lish ulkan baxt ammo uning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoq bo'lg'usi haykaltaroshni 1966 yilda san'at institutiga boshladi. Bu yerda u taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedovdan saboq oldi.

Ma'lumki, haykaltaroshlikni o'rganishda qalamtasvir sirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda olingan ta'lim 1971yilgacha davom etib, san'at sirlarini o'rganishning keyingi bosqichida uz samarasini bera boshladi. Albatta, ilm va san'atni o'rganish ustozlarning mexru maxoratlariga bog'lik. Ilxom Jabborov bilim yurti va san'at institutida ta'lim olgan yillaridayoq o'zining iqtidorli shogird ekanligi bilan alohida ajralib turar edi. Uning asarlarda rang - baranglik, kompozitsiyalarning boyligi yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Ayniqsa, «Xayol» nomli asari alohida e'tiborga sazovordir. Shunday qilib, Ilxom Jabborov ijodida o'ta rang-baranglikka boy haykallar vujudga kela boshladi. Haykaltarosh bir qator tarixiy allomalar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bulardan, ayniqsa, «Ibn Sino», «Farobiy», «Navoiy va Jomiy», «Amir Temur», «Farg'oniy», «/ofur /ulom» kabi asarlari e'tiborga molikdir. Haykaltarosh turli kompozitsiyalar rang - barang portretlar yaratar ekan, zamonaviy haykaltaroshlikda maxorat egasi ekanligini ko'rsatadi.

Mamalakatimizda erishilgan mustaqillik san'atkorni yangilanish, uyg'onish, ijodiy kamolot sari yanada ilxomlantirdi. U buyuk sarkarda Amir Temur obrazini monumental haykalda tikladi. Haykaltarosh soxibqiron Temur obraziga murojat kilar ekan, buyuk sarkarda xaqidagi adabiyotlarni, miniatyura tasvirlarni, rassomlarning ishlarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganadi. U bu haqida shunday deydi:

- Amir Temur obrazini yaratish orzusi menda ilk bor bundan 25 yilcha avval paydo bo'lgan edi. O'shanda Samarqand shaxrida bo'lganimda tepamda xuddi ulug' bobomiz ruxi uchib yurganday qalbim larzaga kelgan edi. Samarqandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon bo'yida

tepalikning ustida shox ruxi shaxarni qo'riqlab turganday ko'z oldimga keldi. Necha asrdan keyin yetib keldim, uchib keldim, deyayotganday- Haykalimning g'oyasi xam shu fikr - o'ylar, xayolda tug'ilgan obraz asosida shakllandi. Temur 27 davlatga madaniyat olib borgan, zolimlarning dodini bergan, qaerda ko'zg'olon bo'lsa, borib bostirib, tinchitib kelgan. Haykaldagi ot jilovini maxkam ushlab turganining ramziy ma'nosi bor. Katta bir mamlakatni boshqarib turganday holati ifoda etilgan. Guyo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab - yashnasin, deb turganday g'oya ilgari surilgan .

Darhaqiqat Ilxom Jabborov bugungi monumental haykaltaroshlikka dadil kirib kelgan va bu sohada o'zining ulkan asarlarini yarata olgan yetuk ijodkordir.

Damir Ro'ziboev

Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jixatlarini iste'dodli ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan Damir Ro'ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 1960 yillarda kirib kelgan.

U 1939 yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan. 1958 yilda esa respublika badiiy bilim yurtini muvaffaqiyatli tugatdi. Bilim yurtida ta'lim olgan yillari taniqli rassom Aleksandr Nikolaevich Volkov bilan tanishishi, uning ijodiy faoliyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Mashxur rangtasvir ustasi A.N.Volkovning ta'siri bo'lsa kerak, Damir Ro'ziboev haykaltaroshlikda rangtasvir va grafikani ko'shib yangicha muvaffaqiyatlarga erishishdi. D.Ro'ziboev haykaltaroshlik san'atining o'tmishdagi rangli namunalari o'ziga xos an'anaviy maktab ekanligini chuqur anglagan holda, musika va tasviriy san'at o'rtasida azaldan bog'liqlik mavjudligini qalbdan his etdi. U bir qancha asarlarida xalqimizning musiqa merosiga, og'zaki ijodiga murojat etib kelmoqda.

San'atkor ijodida shakl va xajmlarning o'ziga xosligi xarakatlarning tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovliligi yaqqol sezilib turadi. 1960 yillarda ishlagan bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy xayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan bo'lsa,. 1962 yilda ishlangan «Choyxona» deb nomlangan asarida keksa va nuroniy chollar suxbati, harakatlari va xarakterlari sharkona bir ko'rinishda uz ifodasini topgan. San'atshunos olim Rafael Taqtosh portreti, rassom V. Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli ifodalangan. 1965 yilda rassomlar ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi haykaltaroshning san'atdagi ijodiy mas'uliyatini yanada oshirdi. Endi uning asarlarida yangicha izlanishlar, obrazlarni chuqurroq taxlil qilish, zamonaviy haykaltaroshlikda o'z o'rnini qidirayotganini ko'rsatadi. Hakikatda ham, 60 yillarda yaratilgan bir qator asarlaridayoq D.Ro'ziboevning ijodiy

muvaffaqiyatlari aniq ko‘rinadi. O‘tmish haykaltaroshligidan ta’sirlanib yaratgan «qora relf» asarida qadimgi rivoyatlarni eslatuvchi qiyofa gavdalanadi. Bir qator portretlarda esa zamonaviy rux va xamyurtlarimizning obrazlari o‘z aksini topgan. Bu o‘rinda yog‘ochdan ishlangan «Saida» (1962y) portretida go‘zallik va latofat ichki bir tuyg‘u bilan aks etganligi diqqatga sazovordir. 70 yillarning boshiga kelib, haykaltaroshning asarlarida badiiy ifodalar qamrovi kengaydi. Masalan, chuqur falsafiy mushoxadalarga ega bo‘lgan Abu Rayxon Beruniy portreti bu o‘rinda diqqatga molik. U 1972-75 yillarda ijodiy izlanishlar bilan birgalikda O‘zbekiston rassomlar ittifoqining haykaltaroshlik bo‘limini boshqaradi. 70-yillarning ikkinchi yarmiga kelib esa haykaltaroshning ijodi mazmunan va shaklan yanada boyidi. «Sozandalar» (1977) deb nomlangan asarida katta bir bayramona tus aks ettirilishi bilan birga xar bir obrazning o‘ziga xos xarakteri, xususiyati kishi e’tiborini o‘ziga jalb qiladi.

Damir Ro‘ziboev haykaltaroshlik san’atiga birdaniga kirib kelgani yo‘q. O‘zbekiston xududidagi qadimgi haykallarni taniqli arxeolog va san’atshunos olimlar G.Pugachenkova, B.Tursunovlar bilan xamkorlikda qidirib topdi va o‘rgandi. Bu jarayonlarda ularning shaklu shamoyilini taxlil qilar ekan, o‘tmish haykallarida o‘ziga xos bir olamni kashf etdi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, san’atkor o‘tmish haykaltaroshligidagi an’analarga qayta-qayta murojaat qiladi.

Damir Ro‘ziboev dastlab grafika va rangtasvir san’ati bilan astoydil shugullanganligi uchunmi yoki o‘tmish haykaltaroshligidan katta ta’surot olganligi natijasimi, rangtasvir san’atini haykaltaroshlikka singdirmoqda.

Damir Ro‘ziboev haykaltaroshlik san’atida katta bir maktabni o‘tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san’atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san’atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo‘lishimiz mumkin. D.Ro‘ziboev haykallardagi shakl va xajmlarga bo‘yoq berish bilan ularning sexrli olamini yanada mu’jizali qila oladi. San’atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan vokeaning rangin sirlarini matolarda yanada to‘ldiradi. Yana bir muxim tomoni D.Ro‘ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San’atkor ko‘tarinki rux bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o‘rganib, o‘z haykallarida jamlashga intiladi. Haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma’naviyatini tobora to‘larok qamrab ifodalashga xarakat qiladi. Damir Ro‘ziboev asarlarini kuzatar ekanmiz, O‘zbekistonning va butun jaxonning klassik haykaltaroshlik san’atini qiziqib o‘rganganligini aniq seza olamiz.

II-BOB.

HAYKATAROSHLIKDA ISHLATILADIGAN DASTGOHLAR VA MATERIALLAR.

ODAM BOSHI REL'EFINI ISHLANISHI.

Z.M.BOBUR REL'EFI.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonani jihozlash

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi -o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish va ularning badiiy didini, san'atga bo'lgan muhabbatini tarbiyalashdan iboratdir. Shuningdek o'quvchilarning turli asbob-uskunalar bilan ishlash hamda turli xildagi materiallardan o'rinli foydalana bilish malakasini, olingan nazariy bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiq eta olish kabi sifatlarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlari maxsus haykaltaroshlikka moslashtirilgan xonalarda o'tkaziladi.

Xonaning xajmi 30-40m bo'lib tabiiy va elektr asboblari yordamida yoritilishi yetarli miqdorda bo'lishi zarur. Mashg'ulot davomida va keyinchalik ishlatiladigan materiallar gips, loy, plastelin, shamot va boshqalarni saqlash uchun qo'shimcha xona yoki yerto'lali xona talab etiladi.

Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonadagi elektr yoritgichlarning nuri ish bajarayotgan o'quvchilarning orqa tomonidan 45 gradus burchak ostida tushishi lozim. Xonadagi loyni muntazam ishlatish uchun vannada yoki maxsus idishda nam holatida (ustini plyonka bilan o'rab) saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'quvchilarning ishlari deyarli kichik xajmda loy yoki plastelindan ishlanishini hisobga olib, ishlarni shkafda, stelajlarda saqlash mumkin.

Haykaltaroshlik dastgohlari turli o'lchamlarda yog'ochdan qo'lda tayyorlanishi yoki zavodda tayyorlangan dastgohlar (stanok) bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kichik hajmdagi figura uchun 0,80-1,30 sm gacha, byustlar uchun 60 sm dan 100 sm gacha bo'lishi mumkin.

Ish jarayonida ishlanayotgan ob'ekt bilan dastgohdagi ish o'quvchilarning ko'zi bilan bir xil balandlikda bo'lishi, o'quvchilarga ob'ektni va o'z ishini bir xilda ko'rish va kuzatishga imkon beradi.

Yog'ochdan tayyorlangan dastgohlarni loy bilan ishlaganda ularning namlikdan chirishini oldini olish uchun plastiklar solib ishlatish lozim.

Plastelindan yoki loydan ishlangan ishlarning balandligi 10-15 sm dan oshadigan bo'lsa, ularning ichiga o'rnatish uchun sim yoki temirdan «karkas» lar o'rnatiladi. Bu karkaslar yasalgan haykalchani yoki uning muayyan qismini ma'lum bir harakatda, muvozanat nuqtasidan og'ma holatda tasvirlashimkonini beradi. Masalan, odam boshini loydan ishlash uchun eni 10 sm qalinligi 2-3 sm bo'lgan 3-4 ta taxtachani bir-biriga biriktirib, uning ustiga yogoch sterjen tik xolatda maxkamlanadi. Yuz qismida loyning ko'p qo'yilishi tufayli og'irligi ortib, ag'darilib ketmasligi uchun yog'och sterjenni taxtachaning ustiga yaxshilab mustaxkamlash kerak bo'ladi. Loyning namligi ortib, tushib ketmasligi uchun sterjenning uchiga plyus qilib loyni simga bog'langan yog'ochlarni qo'shimcha osish lozim.

Qabariq haykallarni, ya'ni releflarni ishlash uchun karkas quyidagicha tayyorlanadi: 5-6 ta bir xil o'lchamga, bir xil qalinlikka ega bo'lgan taxtachalarni bir-biriga mixlanadi va chetiga «ramka» beriladi. Loy tushib ketmasligi uchun uning ichiga qalpoqchali mixlar yoki uncha uzun bo'lmagan reykachalar qoqiladi. Relif uchun tayyorlangan karkas katta xajmda bo'lsa devorga, kichikrok bo'lsa, dastgoh yoki stolga o'rnatiladi.

Odam gavdasini to'la ishlash uchun, agarda ishlanayotgan haykal 20 sm dan ortiq bo'lsa, uning bo'shlikda joylashish o'lchamlarini hisobga olinib, simdan gavdaning nisbatlari xisobga olinib sxematik karkasi tayyorlab olinadi. Avval «G» xarfini eslatuvchi temir ushlagich («glogol») karkas tayyorlanadi. Temir ushlagichning pastki tomoni dumaloq yoki uchburchak shaklida bo'lib, uni oldindan tayyorlangan taxtachaga mahkamlanadi, ushlagichning tepa tomoniga («G» ning uchi bir oz yuqoriga qayrilganligi uchun) yumshoq simdan tayyorlangan odam gavdasi karkas mahkamlanadi.

Odam gavdasi karkasini tayyorlashda yelkadan chanoq (tos) suyagigacha bo'lgan oraliq uchburchak shaklida qilinadi. Ana shu uchburchakni o'rtasidan yuqoriga tik sim chiqarib, gavdani bosh qismi boshlanadigan joyda tugib quyiladi. Karkasning tayanch oyok qismi taxtachaga maxkamlanadi.

Odam gavdasi karkasi faqat «G» simon ushlagichga maxkamlanganligi, yumshoq simdan tayyorlanganligi sababli, uni istalgan xarakatga keltirish imkoniyatini beradi.

Karkaslarga loyni yopishtirish, mustaxkamlash uni yog'ochdan tayyorlangan bolg'achalardan, ayrim hollarda turtburchak reykalardan foydalanish o'rinli hisoblanadi. Bolg'achalar qarag'oy, urik, yong'oq, chinordan tayyorlanadi.


Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida plastelik, loy va shamotdan haykallar yasash uchun qattiq yogoch va simdan tayyorlangan steysklar ishlatiladi. Ulardan ortiqcha loyni olish hamda kichik va nozik detallarni ishlash uchun foydalaniladi. Tayyorlangan steysklarga loy va plastelin yopishib qolmasligi uchun avval ularni jilvirlanib, keyin esa olif yoki lok bilan yaxshilab to'yintiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ko'proq steysklar bilan emas, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'rganishlari lozim, chunki qo'l bu faoliyatda asosiy vazifani bajaradi va talabalarda hajm, harakatni his etish, uni tasvirlay olish malakalarini shakllantirida muhim omil hisoblanadi.


Mashg'ulotlarda ishlatiladigan badiiy materiallar, asbob-uskunalar, qalam va qog'ozlarning xonada saqlanishi o'quvchilarning mashg'ulotlarga muntazam qatnashib borishi va doimiy tayyor holda bo'lishini ta'minlaydi.

II-1. Haykataroshlikda ishlatiladigan dastgohlar va materiallar.


Yuqorida turli stanok va karkaslar haqida aytib o'tgan edik. Quyidagi rasmlarda ularning ko'rinishlari tasvirlangan.





Yog'och steklar va halqalar



Relief ishlash uchun dastgoh



Yog'och bolg'achalar



Aylanma dastgohlar

Haykaltaroshlik mashgʻulotlarida asosan ikki turdagi yumshoqva qattiq materiallardan foydalaniladi. Yumshoq materiallarga loy, plastelin, vosk, gips terrakota kabi materiallar, qattiq materiallarga esa yogʻoch, marmar, bronza va boshqa turdagi materiallar kiradi.

Loy. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan asosiy yumshoq material hisoblanib, u yogʻli hamda kerakli darajada yumshoq egiluvchan, ixtiyoriy xajmdagi shaklga ishlov berilganda oʻz hajmini oʻzgartirmaydigan va qurigan holida ham oʻz hajmini sezilarli oʻzgartirmaydigan materialdir. Haykaltaroshlikda yogʻ miqdori koʻp boʻlgan hamda uzoq muddat davomida oʻzida namlikni saqlab tura oladigan maxsus loylarda foydalaniladi. Bunday tuproqlar tabiatda qIr-adrlar, Angren, qashqadaryo, Surxandaryo togʻlari yon bagʻirlarida, botqoqliklarda tabiiy hollarda uchraydi. Loyning ishlatish uchun quyidagicha tayyorlanadi. Yangi yoki avval ishlatilgan loy massasini kattaligi 3 sm boʻlgan boʻlakchalarga maydalanadi. Maydalangan loy boʻlaklarini maxsus idishga yoki yarmi kesib olib tashlangan bochkaga solib unga maʼlum vaqt oraligʻi mobaynida 3-4 marta suv quyiladi. Bunday tartibda suv quyish loyni tez oʻziga nam tortib ivishiga imkon beradi. Ivitilgan loyni ikki-uch kun mobaynida bir necha marotaba aralashtirilib turiladi, aks holda quyi qatlamdagi loy suyuq yuqorisi esa qattiq holda boʻlib qolib loy bir xilda ivimasligi mumkin. Tayyorlangan loy massasini xar xil qattiq jismlardan tozalanadi. Shundan keyingina maxsus idishdagi yoki bochkadagi loyni olib yogʻoch taxta ustiga (uzunligi 50-60 sm eni 4x4 sm) yogʻoch tayokcha bilan oʻrib, ezib ishlatish uchun yaroqli bir xil yumshoqlik holatiga, yaʼni qoʻl bilan ushlaganda unga yopishmaydigan holatga keltiriladi. Tayyorlangan loyni ishlatish uchun qulay holatga keltirib uni ustini nam latta va xavoda qurib kolmasligi uchun plyonka bilan oʻrab qoʻyib maxsus idishda saqlanadi. Bunday holatda loyni ishlatish zarurati bulmasa, bir necha yil xam saqlash mumkin.

Plastelin.(Italyancha«plastilina»,yunoncha «lastos, yasamoq) Haykaltaroshlikda ishlatiladigan sunʼiy usulda tayyorlangan plastik massa boʻlib, uning loydan afzallik tomoni shundan iboratki, u qurib qolmaydi va doimo oʻzining plastik xolatini saqlab turadi.Uning noqulaylik tomoni ham mavjud boʻlib, sovuqda qattiklashib, oʻta issik joyda esa erib yumshab ketadi. Uning tarkibida yogʻ, vazelin va vosk boʻlganligi sababli, toza qiyimni iflos qilmaslik uchun plastelin bilan ishlangandan keyin albatta qoʻlni soda, sovun bilan yuvib turish yoki namlangan latta bilan artib turishni tavsiya etiladi.

Plastelin loy, vosk, yogʻ, vazelin, kulrang poroshok aralashmasidan tayyorlanadi va quyidagi mikdorda qoʻshiladi: gʻalvirlab elangan va un holiga keltirilgan loy-1522g, mol yoki choʻchka yogʻi

- 10 g, vosk-20g, texnik vazelin - 10 g, kulrang poroshok - 122g. Plastelin tayyorlash uchun vosk bilan mol yoki chuchqa yog'ini yaxshilab aralashtirilgach unga vazelin, loy, kulrang kukun qo'shiladi va hammasi bir xildagi massa holiga kelguncha aralashtiriladi. Tayyorlangan massani tug'ri to'rtburchak yoki kubik holida ixtiyoriy vaznda kesib ishlatiladi.

Gips. Yunoncha «gyposos»Tabiatda oq rangli, rangsiz yoxud temir okisi rangi ko'rinishida gipsli tosh ko'rinishida uchrab turadi. Kimyoviy toza gips tarkibida 22% suv bo'ladi.Gipsli toshni 120 dan 180 gacha qizdirganda gips o'z tarkibidagi 75% foiz kristallangan suvni yo'qotadi. qizdirilgan va yanchib elangan gips suv bilan aralashtirilganda u bilan birikadi hamda hajmi (1% gacha) kattalashadi. Gipsning eng muhim hossalari biri suv bilan birikib suyuq oquvchanlik holatidan sekin-asta, oxista bir me'yorda qotib borib qattih, massaga aylanishidir hamda uni oquvchanlik muddatining davomiyligidir. Gipsni to'la qotish muddati suv bilan aralashtirilganidan qotguncha bo'lgan vaqt o'rtacha 20 minutni tashkil etadi. Gips asosan qolipga olish va qo'yish ishlarida, turli modellarni mustaxkamlab qotirishda hamda yuzalarni tekislashda ishlatiladi.Gips haykaltaroshlikdan tashqarii amaliy san'atda qurilishda, meditsinada ham qo'llaniladi.

Yog'och. Tosh va marmardan ishlangan haykaltaroshlik ishlariga nisbatan yog'ochda turli hildagi xarakatlarni ifoda etish anchagina qulaydir. Chunki yog'ochning zichligi, mustaxkamligi, yengilligi sababli tosh va marmarga nisbatan unga ishlov berish qulayligidir. Yog'ochdan ishlangan haykaltaroshlik kompozitsiyalarida istalgan murakkablikdagi xarakatlarni, gavda xarakatining turli holatlarini, turli kattaliklardagi bo'rtma va botiqliklarning ifodalanishi yog'ochning yengilligi va mustaxkamligi tufayli keng imkoniyatlar yaratadi. Faqatgina yog'ochdan haykaltaroshlik ishlarini bajarish jarayonida og'irlik markazini to'g'ri topib qo'yilishi juda katta ahamiyatga egadir. Yog'ochdan katta o'lchamdagi haykallar ham yasalsada, ammo bir bo'lak yaxlit yog'ochdan haykallar ishlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga yog'ochdan ishlangan asarlar tashqi muhit ta'sirida, yog'ingarchilikda, namlikda hamda turli xildagi zararkunandalarning yemirishi natijasida o'z hususiyatini yo'qotishini hisobga olib, ularni yopiq binolar ichida va kerakli chirishga qarshi ishlov berilgan holda saqlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yog'ochdan ishlangan asarlar yog'in natijasida butkul yuq bo'lib ketishi mumkinligi uchun ham, haykaltaroshlikda yog'ochdan ishlangan asarlar kam miqdorni tashkil etadi. Haykaltaroshlikda asosan yog'ochning dub, yong'oq, chinor, o'rik, karag'ay, tut kabi turlaridan foydalaniladi.

Marmar. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ichida marmarda murakkab harakatlarni ifodalash turli noqulayliklarni keltirib chikaradi. Chunki, uzatilgan qo'l yoki oyoq

marmarning og'irligi tufayli ishlov berish jarayonida o'z vaznini ko'tara olmay sinib ketishi mumkin. Shu sababli ham marmardan ijodiy kompozitsiyalar yaratishda uning xususiyatini hisobga olib tinch turgan, o'ta murakkab xarakterda bo'lmagan yoki guruh holida bir-biriga yopishgan holatdagi ijodiy ishlarning yaratilishi yaxshi natija beradi.



Yog'ochga ishlov berish qurollari

Tabiatda marmarning turli hildagi mayda va yirik donali rang-barang turlari uchray turadi. O'zbekiston sharoitida marmarni /azalkent, Nurota ochiq konlaridan xarsangtoshlar ko'rinishida xar-xil rangdagi turlarini qazib olinadi hamda ularga maxsus ishlov berilgandan so'ng qurilishda va boshqa soxalarda keng ko'lamda foydalaniladi.

Haykaltaroshlikda qo'llaniladigan materiallarning granit, sienit, diorit, porfir, tuf, bazalt

kabi tosh turlari mavjud bo'lib, ular katta - katta kristallar shaklida dala shpatlari va kvarslardan tashkil topgan.

Granitning tarkibida 25-30 foizgacha kvars bo'lsa, sienitda esa deyarli yo'q bo'ladi. Granit, sienit va dioritlarning och kulrangidan, tuq kulrangigacha, och pushti rangidan, to'q qizil rangigacha mavjud. Granitning qora turi (shved graniti) ham mavjuddir. Haykaltaroshlikda granitning mayda donali turlarini keng ko'lamda ishlatiladi.

Haykaltaroshlikda yuqorida aytib o'tilgan materiallardan tashqari oq va kulrang, qizil rangli beton qorishmalaridan tayyorlangan va metal aralashmalari bilan mustaxkamligi oshirilgan betondan ishlangan, mahobatli haykaltaroshlik asarlari hamda kichik hajmli suyakdan ishlangan dastgohli asarlar ham uchrab turadi.

Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ham juda xilma-xildir. Ularning eng sarasi bronza bo'lib, ushbu materialdan haykaltaroshlikda asosan katta yodgorliklarni yaratishda foydalaniladi, ayrim hollarda binolarning old ko'rinishlarini badiiy bezash maqsadida ham qo'llaniladi.



Marmar va granitga ishlov berish qurollari.

Haykaltaroshlikda foydalaniladigan bronza, cho'yan, po'lat, mis, alyumin, ko'rg'oshin va boshqa materiallarning afzalligi shundaki, ushbu metallarda yaratilgan asarlarning chidamliligi,

o'ziga xos rangi, mustaxkamligi hamda haykaltaroshlikning mahobatli yoki dastgohli turiga mansub bo'lishidan qattiy nazar uzoq muddatga tura olishi uchun ham barcha ijodkorlarning ushbu materiallardan ijodiy ishlar yaratish azaliy orzusidir.

II-2. Odam boshi relefini ishlanishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur rel'efi.

Hajmli haykaltaroshlik va relief-plastika turlari bo'lib ularning asosida ob'ektni uch o'lchovda tasvirlash yotadi. Dumaloq haykal haqiqiy ko'rinishda ularning balandligi, kengligi va chuqurligini haqiqiy o'lchovlarda ko'rsatilishini talab qiladi. Relefdan faqatgina ikkita o'lchov-balandligi va kengligi haqiqiy bo'lib qolaveradi, chuqurlik esa shartli ravishda quriladi va turlicha chegarada olinishi mumkin. Tasvirning chuqurligiga qarab relefini ikki turga ajratiladi: gorelef va barelef. Barelef dumaloq haykalning $\frac{1}{3}$ nisbatlari chuqurligi asosida quriladi, gorelef esa haqiqiy haykalning $\frac{2}{3}$ yoki $\frac{3}{4}$ nisbatdagi chuqurligida quriladi.

Haykal tasvirlari relefdan tomoshabin uchun hajmli ko'rinishi va dumaloq shakli hissini uyg'otishi kerak. Haykaltaroshlik relefi hajmli shaklni chuqur o'rganib chiqish asosida quriladi. Releflar usulida boshni yon tomonidan tasvirlash ancha ko'proq tarqalgan, lekin to'rtidan uch qismiga burilgan va anfas ko'rinishlari ham tez tez uchrab turadi.

Odam boshi relefini yasash oldingi qalamtasvir mashg'ulotlardagi boshning hajmini o'rganishda qo'llanilgandek, klassik gips namunalar asosida bajariladi. Bu metodika to'g'ridir, chunki ikki topshiriq ham bir modeldan bajarilsa talabalar materialni yaxshi o'zlashtiradilar. Dumaloq haykalda o'rganilgan hajmli shaklni ular yanada yaxshi anglagan holda endi uni relefdan namoyon etadilar.

Ko'pgina holatlarda relefli tasvirlar arxitektura elementlardan iborat bo'lib, devorlarda joylashtiriladi va u bilan yaxlitlikni tashkil etadi.



O'quv topshiriqlarida releflar taxtachalarda amalga oshiriladi. Taxtacha talabaning ko'zi balandligidagi haykaltaroshlik dastgohida vertikal holatda qo'yiladi. Gips namunasi ham shunday balandlikda qo'yiladi. Boshning tuzilishini aniq kuzatish maqsadida ikki talabaga bitta model beriladi. Talaba modeldan 1,5-2,0 metr masofada turadi.

Bosh relefini qurish o'quv ishlari asosiy zamin tekislikdan boshlanadi. Taxtagacha 3-4 sm qalinlikda loy qatlami berib chiqiladi, va uni tekislab olinadi. Bunday tekislab olingan yuzaga stek yoki pichoqqa uchi bilan bosh va bo'yinning ko'rinishi yengil qilib chizib olinadi. Tasvirni taxtachasining yuqori tomoniga yaqinroq joylashtiriladi, yuz tomonida va bosh orqasidagidan ko'proq masofa oraliq olinadi. Shuningdek boshning umumiy hajmi taxtachaning yuzini iloji boricha to'ldirib turishi kerak. Keyingi bosqichda boshning yuz qismi abrisi aniq qilib chizib olinadi. Unda boshning asosiy nisbatlari, model xarakterini aniqligiga va to'la o'xshashligiga

erishish kerak. Relif bosh hajmlarini chuqurlikda perespektiv qisqarish prinsipi bo'yicha quriladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, hajmlarning chuqurlikka qisqarib borishi prespektiva qonunlarining asosi bo'lgan -"oltin kesim" nisbatlari qonuni bo'yicha amalga oshirilishi kerak. "Oltin kesim" qonuni quyidagi nisbatlarda: 3:5, 5:8, 8:13 va hokazolarda belgilanadi.



Boshni yon tomonidan relefini tasvirlash vazifasini bajarishda eng avval boshning o'rta holatini aniqlab olish kerak. Agar dumaloq haykaltaroshlikda o'rta chiziq shaklni teng ikki qismga ajratsa profil relif tasvirda o'rta chiziq asosiy tekislikka yaqinroq bo'ladi va relif hajmini 3:5 nisbatida ajratadi.



Boshqacha qilib aytganda, agarda relif chuqurligini shartli ravishda sakkiz birlik qismi sifatida olsak unda oldingi ko'rinishdan o'rta tekislikkacha besh birlikni, o'rta tekislikdan asosiy tekislikkacha esa uch birlikni tashkil etadi. Bu vazifani bajarishda relefini o'rta tekislik (chiziqqa) nisbatan besh birlik qism chuqurligida bajarib, kuzatuvchiga boshning ko'rinib turuvchi qismini aniqlash, relefning ko'zga ko'rinmas qismi uch birlik dan iborat bo'lib, taxta fonida mavjud bo'ladi.

Amaliy mashqlarda relief tekisligini asosiy tekislikka parallel ravishda ma'lum qalinlikda loy yotkizib chiqib xosil qilinadi. Bu boshning yon tomonidan ko'rinish siluetini eslatadi. Ana shu ko'rinishda boshning tasviri aniqlanadi, nisbatlari yaxshilab tekshiriladi.

Keyingi bosqichda relief hajmi loy bilan o'stirib boriladi va kallaning anatomik tuzilishidan kelib chiqib boshning hajmini asosiy sakkiz o'lchovlarini aniqlaymiz, ular asosida relief quriladi: 1-burun qalinligi, 2-peshona do'ngligilari orasidagi masofa, 3-og'iz kengligi, 4-kalla suyagining ko'z kosasi chetki nuqtalari orasidagi masofa, 5-pastki jag'lar burchaklari, 6-yanoq suyaklari o'rtasi, 7-tepa suyaklari orasi, 8-quloqlar o'rtasidagi masofa 32 a,b-rasmlar.



32 a,b - rasmlar.

Boshni yon tomonidan qaraganda bu hajmlar go'yoki zinapoya kabi turli chuqurlik va do'ngliklardan iborat bo'lib, biz tomonga chiqib kelayotganga o'xshashini ko'rish mumkin. Bu esa boshning anatomik tuzilishi va konstruksiyalaridir.

Vazifani yaxshi tayyorlangan, qo‘l bilan yumshatilgan, toza loy bilan amalga oshirish kerak. Ishni o‘ylab, ma’lum tartibda, olib borish va loyni bekordan bekorga surtavermaslik, ortiqcha shakllar paydo qilmay olib borish kerak.

Loydan yasashni uzoq ko‘rinishdan boshlanadi. Eng avval burun kattaligi yasaladi. Ikkinchi planda asosiy tekislikka perpendikulyar qilib peshona do‘ngliklari joylashishi bajariladi.

Keyingi bosqichda ko‘z kosasi chuqurligi shakllantiriladi. Taxminan ana shu balandlikda yuqori va pastki jag‘lar birlashgan qismi joylashadi. So‘ngra chakka suyaklari, pastki jag‘ning ifodasi, yanoqlar, chakka suyaklari quloqlar yasab boriladi. Shakl bo‘laklarining nisbatlari boshning anatomik tuzilishdan kelib chiqib, uning haqiqiy asl ko‘rinishiga teng qilib olinadi. Relief ishlashda bir ko‘rinish ikkinchisiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday ketma-ketlikda ishni qismlarga ajratib bajarish bo‘laklarni alohida qurish degani emas. Tasviriy san’atning klassik ish uslublari-umumiydan xususiyligiga va xususiydan yana umumiyga - qoidasi haykaltaroshlikning bosh relefini bajarishning ham doimiy sharti bo‘lib qolaveradi. Vazifani bajarishda ko‘zni shunday o‘rgatish kerakki, bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham xususiyni ko‘ra olib, ularni bir biriga bog‘lash kerak.

Relief perespektiva qonunlari asosida, boshning o‘rta tekisligini hisobga olgan holda ketma-ketlik tartib bilan yasaladi.

Ba’zi bir o‘lchovlar va nisbatlarni aniqlash uchun sirkul ishlatish mumkin, lekin hamma vaqt ham undan foydalanaverish mumkin emas. Ko‘zning, sezish qobiliyatini rivojlantirish va ularga ko‘proq ishonish kerak. Bu borada o‘rta asr rassomi va tasviriy san’at sohasidagi nazariyotchisi I.Sandrat shunday degan edi: «Shuni doim yodda tutish lozimki, keragidan ortiq o‘lchab tasvirlash rassomga foydadan ko‘ra ko‘proq zarar keltirishi mumkin. Ko‘z bilan chamalab chizish va shu asosda ko‘plab mashqlar bajarishi uning muvaffaqiyatini belgilaydi.»¹

Boshning yon tomonidan relefini bajarganda har doim uni haqiqiy namunaning oldidan, yonidan, pastidan qarab solishtirib borish kerak.

Boshni turli yorug‘liklarda yasash kerak. Buning uchun dastgohni turli holatlarga burib yorug‘lik tushish yo‘nalishini o‘zgartirish mumkin. Bu esa xatolarni o‘z vaqtida aniqlashga va ularni tuzatishga yordam beradi.

¹ Мастера учысств об учысстве 1.1 М-П 1937, с-390.


Talabalar ishlarini ko‘rib tahlil qilib chiqish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha ular bir xil xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ba‘zan talaba ishga berilib ketib yon tomonidan ishlayotgani esidan chiqib boshqa holatdan modelga qaray boshlaydi va shunda ba‘zi tasvirlar to‘rt dan uch qismli talqin oladi.

Relefni yon tomondan kuzatib tekshirganda ko‘pincha burun ko‘z kosasi tashqi aylanasidan kengroq, og‘iz esa burundan kichikligi aniqlanadi, quloqning eshitish teshiklari haddan tashqari chuqur, uning chanog‘i esa haqiqiy hajmda tasvirlanadi.

Yon tomondan tasvirlashdan farqli ravishda to‘rt dan uch holatda boshni tasvirlashda bosh tekisligi asosiy tekislikka parallel emas, balki unga nisbatan biroz burchak ostida bo‘ladi.

Bosh relefini to‘rt dan uch qism holatda bajarish bosqichlari ketma-ketligi tartibini ko‘rib chiqamiz 33- rasm a,b,c,d .

Loy yopishtirib chiqilgan fon tekisligida bosh surati chizib olingandan keyin, uning old tomoni peshona-yuz tomonini va boshining yon tomonini ajratib turuvchi chegarani aniqlab olish kerak 33-rasm a. U chekka qismidan o‘tib borib, ko‘z kosasi tashqi qirrasiga o‘tadi va yanoq chetidan, yuqori jag‘ suyagining uchi hamda dahan do‘ngligiga tushadi. Shundan keyin relef chuqurligi va boshning yuz va orqa tomonini chegara chizig‘idan kelib chiqib relefni qurishga kirishish mumkin. Boshning yuz



Odam boshini relefini ishlash.

tomonida koʻzlar joylashadigan tekislikni aniqlab chiqamiz va relefning oʻrta tekisligiga mos keluvchi, chuqurlikni 3:5 nisbatga boʻluvchi simmetriya oʻrta chiziqni oʻtkazamiz.

Relief bajarish keyingi bosqichlari 33-b,c,d rasmda ko'rsatilgan. Bunda o'rta chiziqda burun piramidasi, og'iz, dahan quriladi, ko'z kosasi ko'rsatiladi, yanoq suyaklari, pastki jag' yasaladi. Shundan keyin relief chuqurligi hajmi perespektiv qisqarishini hisobga olingan xolda ish davom ettirilib... ishlab chiqishga kirishiladi. To'rtidan uch ko'rinishda relief ishlarida bosh shaklini asosiy tekislikka parallel qilib foydalanmaslikka harakat qilish kerak, chunki bu relief ko'rinishini buzadi. Aytib o'tilgan ketma-ketlik tartibida ish olib borish har qanday chuqurlikdagi relefni bajarish imkonini yaratadi (eng past barelefdan tortib, to baland gorelefgacha). Ammo shuni esda saqlash kerakki, relief chuqurligi ortib borgan sari o'rta tekislik asosiy fon tekisligidan uzoqlashib boradi.

Shu sababli esa o'rta tekislik bilan asosiy fon tekisligi orasida joylashgan bosh hajmini konstruktiv ishlab chiqish zarurligi ko'proq bo'ladi. Bu shuning uchun kerakki, relefni tomoshabin yon tomonidan ham kuzatishi mumkin.

Z.M.Bobur relefini bajarish tartibi

Bitiruv malakaviy ishimga amaliy ish sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur relefini ishlashni o'zimga maqsad qilib, bosqichma-bosqich relefni yasadim. Unda doimiy relief yasash qoidalaridan yiroqroq holda materialning o'ziga bir yo'la tasvirni xajmli xolatda ya'ni relefni ifodalashga xarakat qildim. Ishning boshida tekis taxta olib , unga aylana shaklda qalinroq qilib



alibastrni maxsus qolip tayyorlab quyib oldim. Quyishdan oldin taxtaga yaxshi ko'chishligi uchun yog' surtib oldim. Alibastrdan loy tayyorlayotganda uni ko'proq aylantirib, o'yishga qulay bo'lishi uchun yumshoqroq xolatga keltirib oldim va aylana qolpga quydim. Qotishni boshlaganda , unga Bobur bosh ko'rinishini tasvirini tushurib oldim va chapdan boshlab umumiylikni unutmagan holatda o'yishni boshladim.

Umumiy baland – pasliklarini xam olib,detallariga e'tibor bergan xolatda Bobur siymosini tasvirlashga xarakat qildim. Sallalari va yonoklarining balandliklarini chikarib, qosh va kyzlarni joylashtirib , chap tomonidan ishni boshladim.



Ko‘z va qoshlarni o‘ng tomonga xam mosligini chikargan xolda ikkinchi ko‘zi va o‘ng tomondagi yuz qismlarini xam navbatma-navbat ishlab chikdim.

So‘ngra pastki qismlarini burun, soqollari va qisman tasvirlangan kiyimini o‘yib, tayyorlab oldim. Umumiylikni ko‘rib, to‘g‘rilash zarur qismlarini baland-past qismlarini to‘g‘rilab oldim.



Rel'efdagi barcha detallashtirish ishlarini amalga oshirib, tekisliklarini ifodalab, tekislab,tayyor holatga keltirdim va oq rangda suvli bo'yoq bilan bo'yab ishni yakuniga yetkazdim.

XULOSA

Men bugun “O‘zbek milliy haykaltaroshlik san’atining o‘ziga hos tomonlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni himoya qilmoqdaman. Bitiruv malakaviy ishim ikki bob, xar bir boblar ikki bo‘limdan va xulosa qismlaridan iborat Unda men haykaltaroshlik san’ati tarixi, kelib chiqishi, insoniyat taraqqiyotida haykaltaroshlik san’atining o‘ziga xos o‘rni va rivojlanishini yoritib berishga harakat qildim. Bundan tashqari O‘zbekistonimizning milliy haykaltaroshlik san’atini rivojlanishi, o‘zbek haykaltaroshlari, ularning hayoti va ijodlari haqida ham yoritib berishga harakat qildim.

Haykallar asosan byust yoki rel’ef xolatida ishlanadi. Byustlar to‘liq, yarim gavda yoki yelkagacha tasvirlanishi mumkin. Dumaloq(byust) haykallarni hamma tomondan aylanib ko‘rish mumkin bo‘lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo‘rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko‘riladi. Habariq haykallarni relief deb ataladi. Relief fransuzcha so‘z bo‘lib «yuza» degan ma’noni anglatadi.

Reliefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda kenglik, tabiat manzaralarining ko‘rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday releflarni ba’zan perspektivali relief deb ham yuritiladi.

Relief o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi. Ular barelef va gorelefdir. Barelef ham fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, «past» relief degan ma’noni anglatadi. Barelefda haykal tekis yuzaga nisbatan bir oz qabargan bo‘lib, uning qalinligi o‘zining haqiqiy hajmining yarimidan oshmaydi

Tanga, nishon, orden va medal yuzalaridagi bo‘rtma tasvirlar bunga misol bo‘la oladi. Bareleflar ayniqsa amaliy san’at buyumlarini, me’morchilik binolarini bezashda juda qo‘l keladi. qadimda hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar: ko‘za, guldon, qurol-aslahalarning yuzalarini bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo‘rtma tasvirlar ishlaganlar.

Gorelef so‘zi ham fransuzcha bo‘lib, «baland» relief ma’nosini bildiradi. haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo‘rtib chiqqan bo‘lib, uning qalinligi o‘zining haqiqiy hajmining yarimidan oshgan bo‘lishi shart. Gorelefga ko‘plab tarixiy voqealarga bag‘ishlab ishlangan yodgorliklar misol bo‘lishi mumkin.

Bu yodgorlikdagi ayrim haykallar, masalan, oldinda tasvirlangan obrazlar, yuzaga nisbatan juda bo‘rtib chiqqan bo‘lsa ham lekin ular asosiy kompozitsiya yuzasiga yopishgan holda ishlangan. Bu yodgorliklarda reliefning ikki turini ham uchratish mumkin. Lekin gorelef unda yetakchi o‘rinni

egallaydi.

Haykaltaroshlikda relefning yana bir turi mavjud bo'lib, bu o'yib ishlangan releflardir. Bunday releflar odatda tekis yuzaga o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadi. Bunday releflarning imkoniyati chegaralangan bo'lganidan ular amalga juda kam qo'llaniladi. Ular qadimgi Misrda ko'plab ishlatilgan.

Shu o'rinda haykalning o'ziga to'xtalib o'tsak. Xaykallar – bu biror jonli mavjudotlarni: odam yoki odamlarni, xayvon va o'simliklarni loydan, plastilindan, gips yoki alibastrdan, toshdan, yog'och va xokazolardan umumiy xajmini chiqarib yasalgan ishlardir. Haykaltaroshlik asarlarini yaratish uchun turli xildagi materiallardan foydalaniladi. Bu materiallar haykalga turli harakter va mazmun berishda hizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulugvorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmardan ishlangan haykallar nozik, ko'rkam ko'rinadi. Xaykaltaroshlik san'ati o'zining xaqiqatga yaqin darajada tasvirlanishi bilan boshqa amaliy san'ati turlaridan ajralib turadi. Shu sababdanmi bu san'at turiga bo'lgan qiziqishim kuchli. Xaykaltaroshlikni puxta o'rganmoqchi bo'lgan inson Qalamtasvirni xam, rangtasvirni xam, kompozitsiyani, o'ymakorlikni, plastik anatomiyani, xajm va nisbatlarni, umuman olganda barcha bilimlarni yaxshi o'zlashtira olgan bo'lishi lozim. Insonni dunyoqarashini kengaytiradi. Tasavvur qilish qobiliyatini o'stiradi.

Amaliy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlari borliqdagi hajmga ega bo'lgan barcha shakllar asosida tasvirlanadi. Mayda haykalchalardan tortib, park va hiyobonlarga o'rnatiladigan turli mahobatli haykallar, yodgorliklar, binolarning devorlariga ishlanadigan releflar, tanga, nishon, medal kabilarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlaridir.

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Bungamisol qilib Ona Vatanimizning ko'plab shaharlarida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoirlarning haykallarini keltirishimiz mumkin. Ularga misollarni bitiruv malakaviy ishimda keltirib o'tdim. Istirohat bog'lari, hiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi.

haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmunni anglatib me'morchilik va tevarakatofga bog'liq bo'lmagan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlarni bir oz yengil yumoristik tarzda talqin etib, bo'rttiriladi. Bunga xalq badiiy ijodiyoti haykalchalarini misol qilish mumkin. haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Men ham o'z bitiruv malakaviy ishimda o'z zamonasining mashxur olimi,shoxi va shoiri bo'lgan yurtdoshimiz Zaxiriddin Muxammad Boburning rel'efini bajarishga xarakat qildim. Bizning universitetimiz nomi ham aynan Bobur nomi bilan ataladi. Bu siymoni tanlashimga yuqorida aytib o'tganlarim sabab bo'la oladi deb o'ylayman. Biz ikkinchi kursga o'tgan vaqtlarimizda ustoz-shogird tizimi bo'yicha hamma o'zining kelajakda himoya qila olishiga qarab mavzu va ilmiy raxbar tanlanib , shu vaqtdan boshlab ustozimiz X.Ismonov bilan mavzu bo'yicha ishlab kelamiz. Turli eskizlar va amaliy ishlar bajarishga xarakat qildik. Bitiruv malakaviy ishimda ham shu ishlarning davomi sifatida Bobur siymosini rel'efini ilmiy rahbarim boshchiligida bajardik. Odatda haykallarni yasashda avvalo loydan yasab, to'la tugaganidan so'ng undan qolip olinib, unga gis, alibastr yoki boshqa materialdan loy tayyorlanib quyiladi. Men alibastrdan qorishmani yumshoqroq darajada qotadigan holatda tayyorlab olib, bir yo'la rel'efni o'yib ketdim. Bunda avvalo yuzning umumiy xajmini chiqarib, bo'rtgan va ichiga kirgan holatlarini umumiy holatda shyib, so'ngra detallashtirishga kirishdim. Bilamizki Bobur ko'zlari qisman qisqroq, sallasi keng o'ralgan xolatda tasvirlanadi. Men ham shu tomonlarga ahamiyat berdim. Detallashtirishda ko'zning va umumiy yuz qismlarini holatlarini to'g'ri ifodalashga harakat qildim.

Biz Andijon davlat universitetini tamomlagandan so'ng barchamiz, pedagog kadrlar bo'lib yetishamiz. Bu esa juda ham mas'uliyatli kasb hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalab, ularga bilim berish har birimizdan o'z kasbimizni puxta egallashimizni talab qiladi. O'ylaymanki kelajakdagi faoliyatimizda bundanda chiroyliroq, kuchliroq ishlarni bajarib, o'quvchilarga ham o'rgatib, yaxshi

bilim berishga hrg'arakat qilamiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T. «O'zbekiston», 1999
2. ¹I. A. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.T. «O'zbekiston», 1999 yil
3. N.Abdullaev San'at tarixi II-jild I-kitob «San'at», Toshkent, 2001.
4. «O'zbekiston san'ati va madaniyati tarixi» fanidan ma'ruzalar matni- Angren 2005 yil.
5. O'zbekiston tarixi T., 2000 y.
6. Ye.Barchai. Anotomiya dlya xudojnikov . Budapesht, 1975.
7. B.Boymetov haykaltaroshlik va plastik anotomiya. «Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi»bakalavriat yo'nalishi o'quv dasturi.
8. Hayyykaltarosshlik va plastic anatomiya. M.Shahodatov. T. "Fan va texnologiya"-2004 y
9. N.K.Axmedov. «Odam anotomiyasi» Atlas. Ibn-Sino.T. I-jild. 1996. II-jild 1998.
10. M.I. Rabinovich «Odam, to'rt oyoqli hayvonlar va parrandalarning plastik anotomiyasi» T.O'qituvchi,
11. V.P.Shevchenko «Odam anotomiyasi va rasm». T., A.Qodiriy Nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti 1996.

Ilovalar.





MUNDARIJA

Kirish	3-11
I-BOB. O‘zbek Milliy haykaltaroshlik San’atining Rivojlanishi.....	12-31
I-1. O‘rta Osiyo haykaltaroshligi	32-40
I-2. Mustaqillik yillari O‘zbekiston haykaltaroshligi va yzbek xaykaltaroshlai....	41-48
II-BOB. Haykataroshlikda ishlatiladigan dastgohlar va materiallar. Odam boshi rel’efini ishlanishi. Z.M.Bobur rel’efi.....	49-51
II-1. Haykataroshlikda ishlatiladigan dastgohlar va materiallar.....	52-60
II-2. Odam boshi relefini ishlanishi. Zahiriddin Muhammad Bobur boshi rel’efi.....	61-70
Xulosa.....	71-74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	75
Ilovalar.....	76-79